

## “Turkistonda milliy ozodlik harakatlari tarixi” nomli xalqaro ilmiy anjumani o’tkazildi

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tomonidan tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan “Turkistonda milliy ozodlik harakatlari tarixi (XIX asr o’rtalari – XX asr 30-yillari)” nomli xalqaro ilmiy anjumani o’tkazildi. Unda akademiklar, yetakchi soha mutaxassislari, olimning shogirdlari, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.





Anjumanni Tarix instituti direktori, professor Azamat Ziyo kirish so'zi bilan ochib berdi. Shundan so'ng Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimovning qutlov so'zi tinglandi.

Anjumanning asosiy qismida O'zbekiston va xorij olimlari o'z ilmiy ma'ruzalari bilan chiqish qildilar. Xususan, videoemuloqot shaklida turkiyalik professorlar Temur Xo'ja, Ahat Andijon, qozog'istonlik olim Hazratali Tursunlarning Buxoro amirligining ag'darilishi, Turkiston istiqlolchilik harakatlari va qo'rбoshilar taqdiri, bolsheviklarning ocharchilik va qatag'on siyosatiga doir yangi ma'ruzalari tinglandi. Shuningdek, mustabid sovet hokimiyatining o'lkadagi yuritgan siyosati xususida Mashhura Darmonova, Feruz Boboyevlarning taqdimotlari namoyish etildi.

Tadbir davomida respublikamizning turli viloyatlaridan tashrif buyurgan professor-olimlar, Qahramon Rajabovning hamkasbleri, do'stlaridan iliq tabriklari, olim bilan bog'liq xotiralari tinglandi.